

O'QUVCHILARGA FRANSUZ TILINI O'RGATISH UCHUN QIZIQARLI VA SAMARALI USULLAR.

Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek qizi

Annotatsiya: O'quchilarga fransuz tilini o'rgatish uchun qiziqarli va samarali usullarni o'rgatish. Ularni xorijiy til o'rganishga qiziqirish hamda motivatsiya berish.

Abstract: Teaching students fun and effective ways to teach French. To interest and motivate them to learn a foreign language.

Аннотация: Обучение студентов интересным и эффективным способам преподавания французского языка. Заинтересовать и мотивировать их к изучению иностранного языка.

Kalit so'zlar: Motivatsiya , AKT,xorijiy til.

Key words: Motivation, ICT, foreign language.

Ключевые слова: Мотивация, ИКТ, иностранный язык.

Bugungi kunga kelib chet tillari, ayniqsa, ingliz, nemis va fransuz tilini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha chet tilini o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobjiy holat, albatta, chunki til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. O'quvchlik yillarimdan beri fransuz tilini o'rganib kelaman va tengdoshlarim tomonidan eng ko'p va tez-tez beriladigan savol "Fransuz tilida qachon gaplashaman?" Hatto o'zim ham tezroq o'z ona tilimdek gaplashishni xohlardim. Fan olimpiadalari, turli tanlovlarda ishtirok etish hamda xorijiy mamlakatlardan kelgan sayyoohlар bilan uchrashuvlar meni yanada til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqimni oshirardi. To'g'ri, men bilan barobar til o'rganishni boshlagan tengdoshlarim ba'zi juz'iy sabablar bilan o'z ustilarida ishlamay, orzularidan voz kechganlari ham bo'ldi. Mutafakkirlarimiz aytganidek, ilm yo'li mashaqqatlidir, ammo saodatlari.

Yuqoridaagi savolga javob berish uchun ko'p jihatlarga e'tibor berish talab qilinadi. Avvalo, o'rganuvchining yoshi, qiziqishi va til o'rganishga kundalik sarflaydigan vaqt, fransuzcha muhit kabilalar muhim bo'lsa, foydalilaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o'qituvchi va til o'rganishdagi to'g'ri yondashuv usullari kabilalar ham yangi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan, o'quvchilar til o'rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo'lishga sharoitlari

yoki fransuzcha gaplashadigan do'stlari yo'qligi bilan bog'laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va Internet rivojlanayotgan davrda bu kabi vajlar o'rinsiz deb o'ylayman. Ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, facebook, twitter, telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va skype orqali video darslar ham til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir. Til o'rgatuvchi o'quv kurslarining ham o'rni beqiyos. Chunki guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar bilan maqsadingiz bir va shu yo'lida bir-biri bilan fransuzcha muloqot qilishi, ma'lumot almashishi yoki raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Fransuz tilini o'rganishni maqsad qilgan inson o'zi uchun fransuzcha muhit yaratishi, ya'ni doimo fransuzcha tinglab, o'qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir. Mening fikrimcha, ko'pchilik insonlar "Maxsus til kurslariga borsam, albatta, chet tilini o'rganaman", deb o'ylashadi. To'g'rirog'i, chet tili kurslarini o'z maqsadlariga erishishda mas'ul deb o'ylashadi. O'ylashimcha, bu umuman noto'g'ri fikr. Unutmang, har doim o'zingiz uchun o'zingiz mas'ulsiz, o'qituvchi o'rgatishi mumkin, ammo saboqning 99 foizi o'zingizga, 1 foizi o'qituvchiga bog'liq" deydi Alisher Absalomov o'zining "Rus tilini o'rganishning samarali usullari" kitobida.

Chet tili o'rganishning maqsadi yo'lida oxirigacha bora olmayotgan yoki bu borada muvaffaqiyatga erisholmayotganlarning yo'l qo'yadigan ba'zi bir xatolarini aytib o'tmoqchiman. Insonlar doimo o'zлari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qiladilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o'tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Biz esa, ko'pincha bu jarayonni majburiyat sifatida qabul qilamiz va natijada, yangi til o'rganish jarayoni biz uchun juda zerikarli tuyuladi. Natijada, siz uchun zerikarli bo'lgan mashg'ulotdan qochishga yoki kamroq vaqt ajratishga moyillik vujudga keladi. Aksincha, o'zingiz qiziqqan soha yoki mavzu bo'yicha yangi o'rganayotgan tilingiz orqali ma'lumot olishga, tinglashga, yozishga va gapirishga harakat qilsangiz, bu jarayon qanchalik qiziq ekanligini sezishingiz mumkin. Masalan, qiziquvchilar o'rganayotgan tillari orqali dunyo yangiliklarini kuzatib borishi, shu tildagi tuli sohaga oid teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi, filmlar ko'rishi yoki shu soha bo'yicha chet tilida o'z fikrlarini bo'lishishi mumkin. Aynan o'zim ham fransuz adabiyot san'atiga qiziqqanim uchun doimo fransuz tilida adabiyot, madaniyatga daxldor jurnallarga a'zo bo'laman, fransuzcha shu sohadagi kinolarni ko'raman hamda o'zim olgan ma'lumotlarni jamlab o'rtoqlarimga fransuz tilida gapirib beraman. Meni har doim tinglaydigan odam topiladi, chunki fransuz san'ati, madaniyati ko'pchilikni qiziqtiradi. Ba'zan meni tinglaydigan odam topilmasa, bu muammo emas, ovozimni telefonda yozib

olaman va kamchiliklarimni eshitib tuzataman. Nutqimda yo'l qo'yayotgan xatolarimni tinglab, keyingi gal shu xatolarni qaytarmaslikka harakat qilaman.

Yana bir ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo'yish. Ayrimlar ish, o'qish tufayli yangi til o'rganishga kuniga vaqtini to'g'ri taqsimlay olmay, ish unumdarligiga erisholmay, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stresga tushishi yoki til o'ganishni butunlay tashlab qo'yishi mumkin. Bu esa, uzoq muddatda va sekin bo'lsa ham umuman to'xtatib qo'yishdan yoki stresga tushib foydasiz asabiylashishdan ko'ra, oz-ozdan o'rganib bo'lsaham maqsadga erishishning foydaliroq ekanligini ko'rsatadi. Avvalo, inson kuchiga, irodasiga mos yo'l tanlashi va shu tanlangan yo'ldan qaytmasligi, yo'ldagi turli-tuman mashaqqatlar unga tajriba bo'lishi va hatto uni manzilga yetishida, muvaffaqiyat qozonishida mash'al bo'ladi. Shuni ham qo'shimcha qilmoqchi edimki, yaxshi kayfiyat, ijobjiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ma'lumotlarda keltirilishicha, "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog'liqdir". Mutaxassislarning e'tirof etishicha, ijobjiy ruhiy ichki kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o'rganishda qo'llaniladigan usullardan ham kuchli hisoblanadi. Ba'zilar hayotda bir nechta chet tillarini o'rganishga imkon beradigan maxsus gen mavjud deb o'ylashadi. Aslida, 5-8 chet tilini bilish bu maxsus sovg'a yoki hatto ko'p yillik mehnat emas. Buni hamma bajarishi mumkinligiga ishoning va tajribali poliglotlarning o'z tajribalaridan kelib chiqib aytadigan fikrlarini ko'p tinglang.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, til o'rganish doimo o'quvchiga bog'liq bo'ladi, ya'ni intilib, xohlab, yurakdan bajarilgan ish doimo o'z mevasini ko'rsatganidek, yuragdan o'rganilgan til ham albatta tez miyada saqlanadi. Buni esa ko'p o'quvchilarimiz tushunmagan holda aybni o'qituvchiga yoki sherigiga, muhitga to'nkab qo'yishadi. Va biz doimo shunday holat yuz berib qolishidan o'zimizni saqlashimiz kerak.